



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 27-iyun, № 130 (9025)

Juma

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI BELARUSGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif
bilan Belarus Respublikasiga keldi.

"Minsk" milliy aeroportida davlatimiz rahbarini Belarus Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari Nikolay Snopkov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif doirasida O'zbekiston yetakchisi 27-iyun kuni Minsk shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi.

O'zA.

O'zbekiston — YOIL:

MINTAQAVIY TUZILMALAR DOIRASIDAGI KO'P TOMONLAMA HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH SARI NAVBATDAGI QADAMLAR

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-27-iyun kunlari amaliy tashrif bilan Minsk shahrida bo'ladi va Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi (YEOIK)ning navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etadi.

Biz va jahon

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy makon negizida tuzilgan xalqaro integratsion iqtisodiy birlashmadir. U 2014-yil 29-mayda Qozog'istonning Ostona shahrida Belarus, Qozog'iston va Rossiya davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risidagi shartnoma kuchga kirganidan so'ng 2015-yil 1-yanvardan ish boshladi. 2015-yilda Armaniston va Qirg'iziston shartnomaga qo'shildi.

O'zbekiston 2020-yilda YOILda kuzatuvchi davlat maqomini olgan. Birlashma nizomiga ko'ra kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar YOIL organlari yig'ilishlarida qaror qabul qilish huquqsiz ishtirok etishi, shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasiga mamlakat vakilini tayinlashi mumkin.

O'zbekistonning YOIL bilan hamkorligini ushbu formatda rivojlantirish milliy manfaatlariga javob beradi va teng huquqli, shuningdek, ishtirokchi davlatlar tomonidan bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi.

O'zbekiston Prezidenti mamlakatimiz kuzatuvchi maqomini olganidan beri mazzur birlashma

Oliy kengashining yettita yig'ilishida qatnashdi.

Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 26-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etdi va muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida so'nggi yillarda mamlakatimiz kuzatuvchi sifatida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan 22 ta yo'nalishda samarali hamkorlikni yo'lga qo'rganini ta'kidladi.

Qayd etilganidek, 2024-yilda O'zbekistonning ittifoq mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 11 foizga oshdi. Oktyabr oyida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan savdo, sanoat, moliya, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa sohalarda 40 ga yaqin chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan yangi uch yillik hamkorlik rejasi qabul qilindi.

O'zbekiston YOILning savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijoratni joriy etish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi qator tarmoq dasturlarida faol ishtirok etmoqda.



MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadri yurtdoshlar!

Avvalo, Yangi O'zbekistonning yangilanayotgan matbuotida, teleradiokanallar, internet nashrlari, nashriyot va matbaa korxonalarida, axborot xizmatlari va platformalarida o'z burchini siddiqildan ado etib kelayotgan siz, hurmatli jurnalistlar, muhtaram faxriylarni, barcha ijodiy va texnik xodimlarni bugungi kasb bayramingiz bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o'zgarayotgan hozirgi o'ta murakkab va notinch dunyoda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ta'siri har qachongidan ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini hammamiz sezib-anglab turibmiz.

Shu ma'noda, bepoyon mediaolamda xolis va haqqoniy axborot tarqatish bilan birga, milliy manfaatlarimizni qat'iy himoya qiladigan jurnalist ahlining mashaqqatli mehnatini muqaddas sarhadlarimizda sergak turgan Vatan posbonlarining jasoratiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinni bo'ladi.

Ushbu qutlug' ayyomda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarga o'z iste'dodi, professional mahorati bilan munosib hissa qo'shib kelayotgan ommaviy axborot vositalarining barcha xodimlariga xalqimiz nomidan yuksak hurmat va ezgu tilaklar izhor etish men uchun katta sharafdir.

Aziz do'stlar!
Atoqli jadic bobomiz Hoji Muin aytganidek, "Matbuot tarixi — Uyqonish davri tarixining bir bo'lagidir".

Biz keyingi yillarda, ulug' ajdodlarimiz boshlab bergan ibratli an'analarni davom ettirib, demokratik jamiyatning muhim sharti va tamoyili bo'lgan ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratmoqdamiz.

Ana shunday yondashuv tufayli mediamakonimizga ilg'or loyiha va texnologiyalar, yangicha mulkiy munosabatlar jadal kirib kelmoqda. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 2 ming 400 ga yaqin ommaviy axborot vositalarining 65 foizi nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelayotgani, xususi nashrlar, teleradiokanallar, internet resurslari tobora ortib, ulardan foydalanuvchilar soni 14,7 milliondan 32,7 millionga yetgani, axborot kontentlarini yaratuvchilar safi kengayib borayotgani, hech shubhasiz, mamlakatimizning media sohasidagi salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, milliy mediakontentni rivojlantirish yo'lida yosh ijodkorlar, mustaqil studiya va produserlik markazlari faoliyati qo'llab-quvvatlanayotgani virtual makonda yuksak sifatli, raqobatbardosh loyihalar paydo bo'lishi uchun zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini, matbuot va so'z erkinligining qonuniy ijrosini ta'minlash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Biz kelajagimiz egalari bo'lgan farzandlarimizni barkamol etib tarbiyalash bilan birga, ularni zararli axborotlardan himoya qilishga ham alohida e'tibor bermoqdamiz. Bu borada 2030-yilgacha bolalar

uchun mo'ljallangan milliy kontentlar, jumladan, nashr mahsulotlari foyda solig'idan ozod qilinib, ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilangani, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish tartibi joriy etilgani muhim qadam bo'ldi.

Ana shu o'zgarishlarning davomi sifatida yaqinda Bolalar kontentini rivojlantirish markazini tashkil etdik. Ushbu markaz yosh avlodimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni ezgulik va ma'rifatga oshona etish bo'yicha amaliy harakatlarni boshlab yuborgan albatta e'tibordir.

Bu haqda gapirganda, onlayn-platforma va veb-saytlar foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilganini ham qayd etish lozim.

Hozirgi vaqtda sun'iy intellekt texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanayotgani jurnalistika uchun katta imkoniyatlar ochish bilan birga, bu boradagi ishlarimizni zamon talablariga mos holda yo'lga qo'yishni talab etmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'z kasbini, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarini puxta egallagan, jonkuyar va vatanparvar yangi jurnalistlar avlodi yetishib kelayotgani barchamizni xursand qiladi.

Ayni vaqtda ommaviy axborot vositalarida xolislik va qonun ustuvorligini ta'minlash, professional bilim va mahoratni oshirib borish, axborot tarqatishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, aholi o'rtasida axborot, bahs va muloqot madaniyatini shakllantirish,

jamiyatimizdagi turli illatlar, korrupsiya balosiga qarshi kurashish kabi dolzarb vazifalar bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur.

Qadri ommaviy axborot vositalari xodimlari! Mamlakatimiz jurnalistlari va ijodiy jamoalari tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, bu yil "Oltin qalam" milliy mukofoti birinchi marta 27-iyunda — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni topshirilmoqda.

Fursatdan foydalanib, bugun sizlarning ishtirokingizda tantanali ravishda taqdirlanadigan barcha tanlov g'oliblarini va yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan soha xodimlarini chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Sizlarning har biringiz kelgusida o'z tajriba va mahorat maktabingizni yaratib, milliy jurnalistikamiz ravnaqiga yanada katta hissa qo'shasizlar, deb ishonaman.

Hech shubhasiz, ommaviy axborot vositalari xodimlaring mashaqqatli mehnatini qadrlash, ijodiy jamoalarni qo'llab-quvvatlash, sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash bundan buyon ham Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, qalbidagi eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Doimo sog'-omon bo'ling, mas'uliyatni va sharafli mehnatingizdan baraka toping, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING F A R M O N I

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, so'z va matbuot erkinligi, ochiqlik tamoyilini mustahkamlashga qo'shayotgan munosib hissasi, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, Yangi O'zbekistonda erishilayotgan ulkan yutuqlarni keng targ'ib etishdagi katta xizmatlari, yuqori malakali, zamonaviy jurnalist kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoni bilan

Doniyorov Salim Musurmonovich — "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati bosh muharriri

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan

Mirzaaliyev Ikboljon Mirzakarimovich — "Jadic" gazetasi bosh muharriri

"Do'stlik" ordeni bilan

Amangeldiyeva Raixan Kdirbayevna — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Nukus teleradiomarkazi filiali tasvir yozish guruhi katta elektr mexanigi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Kenjayeva Zoxida Abdullayevna — To'raqo'rg'on tumani "Davri" gazetasi muharriri, Namangan viloyati

Matyakubov Kamol — "Adolat" gazetasi muxbiri

Mirsharipov Farxodjon Arisonovich — Farg'ona viloyati teleradiokanalini bosh muharririning o'rinbosari, So'x telekanali guruhi rahbari

Oripov Shuxratjon Orip o'g'li — "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat bankining axborot xizmati rahbari

Raximov Abdijalol Abdiziyatovich — Chinoz tumani "Chinoz hayoti" gazetasi bosh muharririning o'rinbosari, Toshkent viloyati

Titshuk Andrey Georgiyevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Dunyo bo'ylab" telekanali axborot-informatsion dasturlar muharririyati montajchisi

Urinboev Saydulla Mardonovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" telekanali teleoperatorlari guruhi teleoperatori

Xasanov Xaydar Xatamjanovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi direktori o'rinbosari

Hasanov Ro'zimboy — "XXI asr" gazetasining Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati bo'yicha muxbiri

II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan

Nurmatov Akbar Normatovich — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining YUNESKO va ixtisoslashtirilgan media kafedrasini mudiri

Xolbekova Baxor Shayimovna — "Ishonch" va "Ишонч-Доверие" gazetalarining Sirdaryo viloyati bo'yicha muxbiri

«Sog'lom turmush» medali bilan

Djumayev Ibraxim — Navoiy viloyati "Salomatlik" gazetasi muharriri

"Kelajak bunyodkori" medali bilan

G'iyosov Mirali Abdullloh o'g'li — Toshkent shahridagi "Sharof plus" nodavlat notijorat tashkiloti loyiha menejeri

"Shuhrat" medali bilan

Abilov Fazliddin Ibragimovich — "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalari tahririyati bosh muharririning o'rinbosari

Avazov Dilmurod Batirovich — "O'riat Dono" radiosi musiqa muharriri

Adilova Munajat Asrorovna — "Daryo.uz" internet nashrining tahrir bo'limi muharriri

Asanov Eldar Enverovich — "Asanov formati" telegram kanali asoschisi, blogger

Ahatov Sobit Temirovich — "Xabar.uz" internet nashrining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalar bo'limi muharriri

Gapirova Nigora Umurzakovna — "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining muqovallash sexi muqovallovchisi

Djumayev Xidoyat Inoyatovich — Buxoro viloyati teleradiokanalining ijodiy ishlab chiqarish guruhi teleoperatori

Karshiyev Aziz Rajabovich — "Kun.uz" internet nashri muharriri

Koraboyev Shamsiddin — Farg'ona viloyati ommaviy axborot vositalari faxriylari kengashi faoli, fotosuratchi

Madatova Zilola Muxamadaliyevna — "Ma'rifat" gazetasi bosh muharririning o'rinbosari

Makarenko Nikita Anatolyevich — Ijtimoiy tarmoqlardagi "Effekt Makarenko" sahifasi asoschisi, blogger

Mamatrayimov Xolmumin Norkobilovich — O'zbekiston Milliy axborot agentligining Surxondaryo viloyati bo'yicha sharhlovchisi

Muminova Gulrux Komilovna — Samarqand viloyati "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari tahririyati maxsus muxbiri

Muslimov Shuxrat Zikrullayevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston MTRK teleradiomarkazi" davlat muassasasi televideniye va radio ko'chma texnika xizmati boshlig'i

Nur Ahmad Hojiboy o'g'li — Toshkent shahridagi "SAS-Media" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari

Rabbimov Kamoliddin Muxiddinovich — "Kamoliddin Rabbimov" telegram kanali asoschisi, siyosatshunos va blogger

Raximov Sarvarjon Xamidjonovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi siyosiy sharhlovchisi

Rashidova Nargizaxon Rashidovna — "Mening yurtim" telekanali efirga uzatish bo'limi muharriri

Sakayeva Elina Ibragimovna — "Gazeta.uz" internet nashri muharriri

Samatova Salima Abidinazarovna — Kasbi tumani axborot-kutubxona markazining aqonement va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi mutaxassisi, Qashqadaryo viloyati

Xamidov Xayrulla Ubaydullayevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Sport" ijodiy birlashmasi sharhlovchisi

Sherova Laziza Shomilovna — "O'zbekiston ovozi" gazetasi parlament faoliyati bo'limi mudiri

Yaqubjonova Nilufar Oybekovna — Andijon viloyati teleradiokanalining radio guruhi katta muharriri

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh. Mirziyoyev
Toshkent shahri,
2025-yil 26-iyun

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sakkizinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

26-iyun kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sakkizinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi. Videokonferensaloqa tarzida

o'tkazilgan yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi. Yalpi majlisning ikkinchi ish kuni

"Turkiy davlatlar tashkilotining Fuqaro muhofazasi mexanizmini tashkil etish to'g'risidagi Bitimni (Bishkek, 2024-yil 6-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunni ko'rib chiqishdan boshlandi.



Deputatlar — hududlarda

ISTIQBOLNI TA'MINLASHDA MAS'ULLIK VA DAXLDORLIK

Avval xabar berganimizdek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, aholi muammolarini o'rganish, ularga ijobiy yechim topish maqsadida o'zlari saylangan okruglarda saylovchilar bilan muloqotlar o'tkazmoqda. Uchrashuvlar davomida xalq vakillari mahalla faollari, ishlab chiqarish korxonalarini, keng jamoatchilik vakillari bilan uchrashib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyati haqida batafsil ma'lumotlar beryapti.



O'zbekiston — YOIL:

MINTAQAVIY TUZILMALAR DOIRASIDAGI KO'P TOMONLAMA HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH SARI NAVBATDAGI QADAMLAR

➡ Davlatimiz rahbari, shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo'nalishlariga alohida to'xtildi.

Xususan, mamlakatimiz yetakchisi o'zaro savdodagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga chaqirdi. Shu nuqtayi nazaridan, O'zbekiston va YOIL davlatlari o'rtasidagi savdoda tarif va notarif cheklolarni qo'llamaslik masalasini ekspertlar darajasida ishlab chiqish taklif etildi. Sanoat kooperatsiyasi va mahalliy lashtirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda vostialariga qo'shishdan manfaatdorlik bildirildi.

"Qo'shma loyihalarni ilgari surish uchun ishonchli moliyaviy manbalarni shakllantirish maqsadida kelgusi yil boshida tartib-taomillarni yakunlab, Yevroosiyo taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishni rejalashtirmoqdamiz", dedi O'zbekiston yetakchisi.

Jumladan, joriy yilning 9-aprel kuni davlatimiz rahbari "O'zbekiston Respublikasining Yevroosiyo taraqqiyot bankini ta'asis etish haqidagi Bitimga (Ostona, 2006-yil 12-yanvar) qo'shishi to'g'risida"gi Qonunni imzoladi.

Bitimning asosiy maqsadi investitsiya faoliyati orqali unga qo'shilgan ishtirokchi davlatlarning iqtisodiy o'sishiga va ular o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga ko'maklashishdir. Shuningdek, bank faoliyati doirasida to'liq va samarali ishtirok etish huquqi ta'minlanadi. Bundan tashqari, banka a'zo davlatlarning iqtisodiy o'sishiga ko'maklashish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va investitsiya faoliyati orqali Yevroosiyo hududida integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, YOIL doirasida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasida tizimli hamkorlik qilish muhimligi qayd etildi. Mamlakatimizni YOILning integratsiyalashgan axborot tizimiga va "Raqamli ittifoq" loyihasiga ulash tashabbusi ilgari surildi. Agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'zaro yetkazib berishni yengillashtirish, innovatsion agrosanoat loyihalarini amalga oshirish va ilmiy ishlanmalarni joriy etishga qaratilgan kooperatsiya dasturini tayyorlash taklif qilindi. Sayyohlik almashuvlarini rag'batlantirish maqsadida davlatimiz rahbari YOIL davlatlari fuqarolariga O'zbekistonga ichki hujjatlar bilan kirish imkonini beruvchi tartibli joriy etishga tayyorligini bildirdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Prezidenti tomonidan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi majlislarida ilgari surilayotgan, tuzilmaga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlarning barcha manfaatlariga to'liq javob beradigan ochiq va pragmatik tashabbuslarning aksariyati hayotga tatbiq etilyapti. E'tiborsiz, davlatimiz rahbarining mazkur taklif va tashabbuslari ishtirokchi davlatlar rahbarlari tomonidan ham yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Bosh vaziri boshchiligidagi YOIL mamlakatlari va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlik bo'yicha idoralaror ishchi guruhi tuzilgan. Ishchi guruhi YOIL bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi, iqtisodiy aloqalarni tahlil qiladi va hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

2024-yil 1-oktyabrda O'zbekiston hukumati va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi o'rtasida 2024 — 2026-yillarga mo'ljallangan Qo'shma harakatlar rejasini imzolandi.

YOIL platformasida kuzatuvchi davlat sifatida ishtirokchi orqali O'zbekiston muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda, tuzilmaga a'zo barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilyapti, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirmoqda. Ushbu omillar esa barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatayotir.

Hozirgi vaqtda YOIL tomonidan xorijiy sheriklar bilan hamkorlik aloqalari Jahon savdo tashkiloti (JST) normalari va tamoyillariga muvofiq tarzda o'rnatilgan.

YOIL xalqaro tashkilotlar va institutlar bilan ham faol hamkorlik olib bormoqda. Jumladan, Jahon savdo tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Jahon bo'xona tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti va boshqalar bilan o'zaro aloqalar to'liq qo'yilgan. Shuningdek, mazkur ittifoqqa a'zo davlatlarning asosiy qismi Jahon savdo tashkilotiga ham a'zo hisoblanadi.

Ushbu omillar hisobga olinib, O'zbekiston tomoni kuzatuvchi davlat sifatida YOILning to'rtta pilot loyihasida ishtirok etmoqda. Xususan, Temir yo'lda yuk tashishni raqamlashtirish loyihasi YOIL davlatlari va Xitoy o'rtasida temir yo'l yuki tashishlarini raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Ushbu reja bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi va elektron raqamli imzodan foydalanilgan holda elektron hujjat aylanishiga va elektron jo'natma hamda unga qo'shilgan hujjatlarni almashish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston vakolatli organlari vakillari 2022-yil iyun va 2023-yil yanvarda ushbu loyihani amalga oshirish bo'yicha uchrashuvlarda qatnashdi. Unda mamlakatlar o'rtasida transport va bo'xona hujjatlarini elektron almashishni bosqichma-bosqich amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. O'zbekistonning mazkur loyihadagi ishtiroki texnik va huquqiy sharoitlarni yaratilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston YOIL dasturida amalga oshirish bosqichida bo'lgan Transchegaraviy (tashqi) elektron tijorat, Iqlim kun tartibi, "Yevroosiyo agroekspres" loyihalarining tomonlar uchun samaradorligini tahlil qilmoqda.

O'zbekistonning mazkur integratsion uyushmada kuzatuvchi davlat maqomida bo'lishi respublikada rivojlanayotgan ilmiy va texnologik inqiloblar, xalqaro savdo, kapitalning ko'chib yurishi, zamonaviy transport, aloqa va axborot tizimlari, iqtisodiy hayotning xalqarolaralari jarayonining global shakllangan darajaga o'tishiga yordam bermoqda.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning eksport salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun YOIL mamlakatlari bilan savdo aylanmasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, O'zbekiston va boshqa a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashuv ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, yangi texnologiyalarning keng va jadal tarqalishiga, infratuzilmalarning rivojlanishiga, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, fondlar rolining yanada oshishiga, savdo va bozorlarning erkinlashuviga va boshqa yutuqlarga erishilishiga xizmat qilyapti.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Prezidentining Minsk shahrida bo'lib o'tadigan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirokchi YOIL mamlakatlari o'rtasida investitsiya, savdo-iqtisodiy va transport-logistika sohalarida yangi hamkorlik asoslarini mustahkamlash va kengaytirishga yaqin sur'at bag'ishlaydi hamda mintaq xalqlari o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Dunyo" AA.

«KUCHLI KENGASH, HISOBDO'R VA TASHABBUSKOR HOKIM» TAMOYILI RO'YOBGA CHIQRILADI

Prezidentimiz shu yil 23-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Unda "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyilini ro'yobga chiqarishga qaratilgan asosiy maqsad hamda vazifalar belgilangan bo'lib, ularning samarali ijrosi so'nggi yillarda xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muxbirimiz ushbu hujjatning mazmun-mohiyati, ahamiyati haqida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zolarining fikr-mulohazalari bilan qiziqdi.

Aks sado

Gulruh AGZAMOVA, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi raisi:

— Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda demokratik islohotlar tizimli amalga oshirilayotganini alohida e'tirof etish joiz. Prezidentimizning ushbu Farmoni ham xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha vakolatlarining takomillashayotgani, shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilishi belgilanganligidan kelib chiqib qabul qilingani bilan ahamiyatlidir.

Binobarin, Farmonda mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish, jumladan, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish, fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash, ijro hokimiyati organlarining mahalliy xalq vakillari oldidagi hisobdorligini oshirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi.

Shu o'rinda xalqimiz manfaatlarini ta'minlash yo'lida islohotlar o'tkazish har doim ham oson kechmaganini qayd etish joiz. Prezidentimiz Shaavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan boshlangan o'zgarishlar bugun odamlar hayotini chinakam o'zgartirdi, inson qadr-qimmatini yuksakka ko'tardi. Aholi buni qalbdan his qilib turibdi. Davlatimiz rahbari har bir chiqishida "xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar yo'lini yanada qat'iy davom ettiramiz va bu yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz!" deya ta'kidlaydi. Qanchalik qiyin va murakkab bo'lsin ham boradagi tashabbuslar bilan mamlakatimiz faqat oldinga qarab bormoqda.

Shu nuqtayi nazaridan aytganda, Farmonda nazarda tutilgan maqsad va vazifalar ham hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida nomarkazlashtirishga qaratilgan bilan diqqatga sazovor. Bunda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent

shahar Kengashlari hamda tuman va shahar Kengashlari vakolatlari muvozanatli taqsimlanadi, har bir bo'g'indagi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vazifa va funksiyalari aniq belgilanadi.

Albatta, ularning barchasi inson manfaatlarini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini muhofaza etishga xizmat qiladi. Zero, xalqimiz ortga qaytmas islohotlar yo'lidan sobitqadamlik bilan dadil ketmoqda.

Zafar XUDOYBERDIYEV, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zosi:

— Mazkur hujjatning ahamiyatli jihati unda belgilangan maqsadlarga erishishning dasturiy hujjatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari, axborot va dasturiy ta'minoti, Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat qilish mexanizmlarining ham ochib berilganidir. Bu, o'z navbatida, uning ijrosini to'laqonli ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farmon bilan tasdiqlangan Konsepsiyadagi bir yo'nalish e'tiborimizni tortdi. U ham bo'lsa, mahalliy Kengash qarorlarini qabul qilish jarayonlarining ochiqligini ta'minlash maqsadida fuqarolarga sessiya ishini bevosita kuzatish imkoniyatini yaratish, bunda fuqarolarning sessiya ishiga aralashish huquqsiz kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi tartibini belgilash hisoblanadi.

Bu Konsepsiyadagi judayam muhim jihat. Shuni ayta olamanki, fuqarolar tomonidan mahalliy Kengashlarning sessiya ishini bevosita kuzatish utopya emas, balki xalqaro tajriba sinovidan o'tgan haqiqatdir. Shu o'rinda bir misol keltirmoqchiman. 2005-yili Daniyaning Orxus shahrida malaka oshirishda bo'lganida, Orxus shahrida mahalliy Kengashi faoliyati bilan tanishish imkoniyati ham bo'lgandi. Konsepsiyada keltirilgan ushbu yo'nalishning ishlash mexanizmini o'sha yerda bevosita kuzatgandim, ya'ni Kengash sessiyasi o'tadigan bino ham fuqarolarning Kengash sessiyasi ishini kuzatish imkonini beruvchi yumaloq shaklda, ikki qavatli edi. Ikkinchi qavat balkon shaklida bo'lib, u yerdan fuqarolar birinchi qavatda o'tayotgan sessiya ishini bevosita kuzatish imkoniga ega, ya'ni fuqarolar o'z hududlarida oid masala yuzasidan deputatlar tomonidan qarorlar qabul

qilish jarayonida sessiya ishiga aralashish huquqsiz kuzatuvchi sifatida bevosita ishtirok etishining guvohi bo'lgandim.

Konsepsiyada xalqaro tajribalar orqali sinovdan o'tgan bunday yo'nalishlarning belgilanishi, xususan, fuqarolarimizga mahalliy Kengashlarning sessiya ishini bevosita kuzatish imkonining yaratilishi, birinchi tomondan, mahalliy Kengashlarda qarorlar qabul qilish jarayonlarining ochiqligini ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan, qaror qaysi hudud manfaatli nuqtayi nazaridan qabul qilinsa, o'sha hudud fuqarolari vakillarining qatnashishi ham ahamiyatlidir. Uchinchidan esa fuqarolar mahalliy Kengashdagi o'z deputatning hudud manfaatli uchun bildirayotgan fikrlari, taklif-mulohazalarini ham bevosita kuzatish imkoniga ega bo'ladi va pirovardida ushbu jarayon mahalliy Kengash deputatlarining o'z saylovchilari oldidagi mas'uliyatlarini yanada oshiradi.

Azamat PARDAYEV, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zosi:

— Haqiqatan ham, davlatimiz rahbarining ushbu Farmoni xalq hokimiyatchiligini amalga qaratilgan yana bir muhim siyosiy hujjat bo'ldi. Unda "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish nazarda tutilmoqda.

Farmonda asosiy maqsadlardan biri sifatida mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotida aholi ishtirokini kengaytirish qayd etilgan. Bu esa davlat boshqaruvida fuqarolarning tashabbusi, fikri va nazorati muhim ahamiyat kasb etayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ijro organlarining mahalliy Kengashlar oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, hududiy boshqaruvni nomarkazlashtirish, Kengashlarning xalqaro aloqalarini rivojlantirish kabi maqsadlar ham belgilab qo'yilgan.

Farmon bilan tasdiqlangan Konsepsiyada mahalliy Kengashlarning tashabbuskorligini oshirish uchun ularga qator vakolatlarini, jumladan, davlat ko'chmas mulkidan foydalanish stavkalarini belgilash, ijtimoiy muhofazadagi shaxslar uchun ish o'rinlari zaxirasini shakllantirish, mahalliy yo'llarda harakat tezligini tartibga solish vakolatlarini berish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, mahalliy Kengashlar huzurida Yoshlar guruhi, fuqarolik jamiyati va NNTR ishtirokida Maslahat guruhi tuzilishi — qarorlar qabul qilishda ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Farmonga muvofiq mahalliy hokimlar o'rinbosarlarini tayinlashdan avval Kengashlarda muhokama etish, mahalliy ijro hokimiyati rahbarlarining jamoatchilik oldida hisobot berish tartibini joriy qilish ham aks etgan. Bu esa davlat xizmatining hisobdor va xalq manfaatlariga javobgar bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek,

"Kengash soati" instituti orqali jamoatchilik va deputatlar ishtirokida muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan muntazam axborot eshitish amaliyoti joriy etiladi. Bu xalqning davlat boshqaruvidagi ovozi yanada eshitilishi uchun yaratilgan qulay platforma bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mahalliy Kengashlar faoliyatini raqamlashtirish borasida ham "Ye-Kengash" elektron platformasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Qaror loyihalarini tayyorlashda sun'iy intellekt, biometrik identifikatsiya, blokcheyn va ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalarni joriy etish — mahalliy Kengashlar faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Farmon va Konsepsiyani to'la qo'llab-quvvatlayman. Ishonamanki, ushbu hujjat mahalliy Kengashlarning mustaqillik, hisobdorlik va tashabbuskorlik salohiyatini yanada oshirishga, shuningdek, nafaqat hududlarni, balki butun mamlakatni jadal va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Belgilangan vazifalarning to'la amalga oshirilishi natijasida mahalliy Kengashlar xalq ovozi, jamiyat manfaati va davlat siyosatini mahalliy ehtiyojlarga moslashtiruvchi asosiy institutga aylanadi.

Imomnazar TURSUNOV, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zosi:

— Farmon bilan O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish Konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Konsepsiyada qator vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Buning natijasida esa parlament va mahalliy vakillik organlari mamlakat va hududlar doirasida qabul qilinayotgan strategik hujjatlarni shakllantirishda, muhokama qilish va tasdiqlashda, eng muhimi, ularni hayotga samarali tatbiq etishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirishga erishiladi.

Albatta, ushbu Konsepsiyaning amalga oshirilishi uchun mavjud muammolar o'rganilishi va ularga aniq yechimlar topilishi kerak. Lekin, umumiy jihatdan, bu fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishi orqali milliy boshqaruv tizimini rivojlantirishda zamonaviy va ijobiy qadamdir.

Shu bilan birga, Konsepsiyada belgilangan maqsadlar va mezonlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish uchun aniq yo'nalishlarni belgilash hamda baholab borish imkonini beradi.

Ular hayotga tatbiq qilishda Qonunchilik palatasi qo'mitalari, siyosiy partiyalar fraksiyalari ham faol qatnashib, mahalliy Kengashlar va ular organlarining faoliyatiga yaqindan ko'mak berish, ish samaradorligini oshirish hamda deputatlarining saylovchilar bilan samarali muloqotini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratadi.

"Xalq so'zi".

ISTIQBOLNI TA'MINLASHDA MAS'ULLIK VA DAXLDORLIK



Fermer va tadbirkorlar bilan muloqot

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Haitov boshchiligidagi ishchi guruh a'zolari Qashqadaryo viloyatida bo'lib, qator tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklari faoliyatini o'rgandi.

Deputatlar dastlab Kasbi tumanidagi "Saidakbar Saidahror" fermer xo'jaligida dala maydonidagi g'ozna nihollari parvarishi va tomchilatib sug'orish texnologiyasidan qay darajada samarali foydalanilayotgani bilan tanishdi.

Muloqotda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ichki islohotlar, sohaga doir qabul qilinayotgan qonunlarning mohiyati, davlatimiz rahbarining viloyatga tashrif davomida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Uchrashuv davomida dala do'konlari sonini ko'paytirish, g'ozna nihollari parvarishini yuksak agrotexnologiyalar asosida tashkil etish, suv tejamliligiga e'tibor qaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, xonadonlarda agronom xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha qator takliflar bildirildi.

Ishchi guruh a'zolari muloqot asosida tuman fermerlarini qiynab kelayotgan muammolarni, takliflarni eshitib, ularni bartaraf etish choralari ko'rdi.

Deputatlarning navbatdagi manzili — Kasbi tumanidagi "Mo'Qlon" MFY

hududida joylashgan "SULTON TEX GROUP" xususiy korxonasi bo'ldi. Bu yerda ular trikotaj-tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni, ishchi-xizmatkorchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Bugungi kunda bu yerda eng samarali iqtisodiy tizim bo'lgan paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etilgan bo'lib, paxta yetishtirishdan boshlab, uni qayta ishlash va tayyor mahsulot qilib sotishgacha bo'lgan jarayon bir joyning o'zida amalga oshirilmoqda. Bu orqali mahsulot tannarxini arzonlashtirish va sifatini oshirishga erishilayotir.

Muloqotda deputatlar tomonidan mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, tayyor mahsulot turlarini va eksport ko'rsatish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Islohotlar ijrosi o'rganildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Alisher Qodirov boshchiligidagi ishchi guruh Farg'ona viloyatida bo'lib, aholi vakillari bilan muloqot qildi.

Ishchi guruhning uchrashuvlari Quvasoy shahri Xalq qabulxonasidan boshlandi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiyinayotgan masalalar tahlili bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Xalq qabulxonalarini ishi tanqid qilinib, qator vazifalar belgilangan edi.

Qonunchilik palatasi deputatlari

mazkur vazifalardan kelib chiqib, mujaftlarni o'rgandi, aholini qiyinayotgan muammolarni tahlil qildi.

Deputatlar eksportboq quyosh panellari va yoritish uskunalarini ishlab chiqaruvchini "Bluye Carbon" korxonasida ham bo'ldi. Ma'lum qilinishicha, 10 mln. dollarlik xorijiy investitsiya hisobiga barpo etilgan korxonada 150 ta doimiy ish o'rni yaratilgan.

Ishchi guruh a'zolari korxonada faoliyati bilan yaqindan tanishib, ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdi. Ularning takliflari, fikr-mulohazalarini tingladi.

Xalq vakillari viloyatdagi bog'chalarni issiq ovqat bilan ta'minlovchi "Garden catering" korxonasi faoliyatini ham o'rgandi. Bu yerda tayyorlangan taomlar, yana bir talay salat va shirinliklardan bolalardan tortib, kattalargacha yetarli kaloriya beruvchi nonushta, tushlik, kechki taomlar majmuasi tuziladi. Buning uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

Deputatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirish, belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq holda ish olib borish orqali bolalarning sog'lom o'sishini ta'minlash bo'yicha zarur tavsiyalar berdi.

Bandlikni ta'minlash — ustuvor vazifa

Qonunchilik palatasi deputati Mavludaxon Adhamjonovaning Andijon viloyatining Oltinko'l tumanida saylovchilar bilan

uchrashuvlari har galdek ko'tarinki ruhdan o'tmoqda.

Deputat tumanidagi "Ijtimoiyat" MFYda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holatini o'rgandi.

Uchrashuv davomida so'nggi yillarda tizimni takomillashtirishga doir ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolini oshirishga qaratilgan salmoqli ishlar qilingani qayd etildi.

Ma'lum bo'lishicha, "mahalla yetilligi" tomonidan har bir oila nazoratga olingani tufayli hududda ishsizlik bartaraf qilingan. Har ikki xonadonning birida tadbirkorlik yoki hunarmandchilik yo'lga qo'yilgan. Aholi tomorqadan foydalanishda ham o'ziga xos maktab yaratgan.

Birgina misol, Hurzamon ko'chasi 6-uyda yashovchi Odiljon Daminov oilasi doim izlanishda. Oila a'zolari bir necha yildirki, stol-stullar ishlab chiqaradi. Natijada oilaning daromadi o'sib, 10 nafarga yaqin mahalla yoshlarining bandligi ta'minlangan.

Xalq vakili Oltinko'l tumanida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yuqori baholab, fuqarolar tomonidan ko'tirilgan murojaatlarni nazoratga oldi.

Yoshlar uchun imkoniyatlar maydoni

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muhammadjon Valiyev ham

joylardagi mavjud muammolarni mahallabay, xonadonbay o'rganish maqsadida FarQona viloyatidagi qator ijtimoiy soha obyektlari, ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishdi.

Deputat Qo'qon shahridagi 25-umumta'lim maktabi faoliyati bilan tanishib, yozgi ta'til davrida bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlariga ijobiy baho berdi.

Ayni paytda ta'lim muassasasida bir nechta sport va fan to'garaklari, shuningdek, psixologiya, kitobxonlik va hunarmandchilik bo'yicha mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan.

Deputat o'quvchilar, ustozlar va mahalliy jamoatchilik vakillari bilan suhbatda "Dolzarb 90 kunlik" tashabbusining ahamiyatiga to'xtalar ekan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi ularning kelajakda barkamol shaxs bo'lib shakllanishida muhim omil ekanini ta'kidladi.

Muloqot davomida ota-onalar va o'qituvchilar bunday tashabbuslar yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etib, ta'lim muassasalari bilan jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashni qayd etdi.

Shuningdek, deputat hududdagi qator ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari va aholi xonadonlarida ham bo'lib, fuqarolarni o'yantirib kelayotgan masalalarni o'rgandi.

"Xalq so'zi".

YOSHLAR PARLAMENTI

NAVQIRON AVLOD MANFAATLARINI IFODA ETAYOTGAN TUZILMA

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelinyapti. Bunga javoban yoshlarimiz barcha jabhada o'zlarini to'la namoyon etmoqda. Siyosiy maydonda yoshlar manfaatlarini faol ilgari surish, Qoya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni qonun ijodkorligi jarayonlariga jalb qilish

maqsadida Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari faoliyati yo'lga qo'yilgan ham besh yil to'ldi. Darhaqiqat, mazkur tuzilma yoshlarimizga yaratilgan imkoniyatlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar bilan tengdoshlarini yaqindan tanishtirish hamda ularning muammo va takliflarini tegishli organlarga yetkazish bilan birga qonun ijodkorligi,

navqiron avlod manfaatlarini himoyasiga qaratilgan qonunchilik takliflarini ishlab chiqish, nazorat-tahlil yo'nalishida va senatorlarning hududlardagi faoliyatiga ko'maklashishda faollik ko'rsatib kelayotgani diqqatga sazovor. Shu ma'noda u mamlakatimiz yoshlarining manfaatlarini ifoda etuvchi parlamentdagi muhim tuzilmaga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Maqsadli institutsional yechimlar hosilasi

O'zbekiston yoshlarning davlat boshqaruvi jarayonlaridagi ishtiroki masalasida aniq institutsional yechimlarni joriy etmoqda. Ayniqsa, Oliy Majlis Senati huzurida tashkil etilgan Yoshlar parlamenti yosh avlodning siyosiy madaniyatini shakllantirish, qonun ijodkorligi jarayonlarini o'rganish va davlat institutlari faoliyatini chuqur tushunishga ko'maklashadigan amaliy maktabga aylinish yo'lida faoliyat yuritaypti.

Bugungi kunda bizning asosiy vazifamiz — faqat ichki masalalar bilan cheklanmasdan, yoshlar ovozi xalqaro miqyosda ham eshittirish, turli mamlakatlar yoshlari bilan ochiq muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat.

Bu borada biz uchun muhim voqe'lardan biri Toshkent shahrida o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etishimiz bo'ldi. Mazkur nufuzli tadbir yuzdan ortiq mamlakat parlamentlari delegatsiyalarini bir joyga jamlagan global platforma bo'lib, Yoshlar parlamenti a'zolari uchun xalqaro maydonda ishtirok etish, yangi bilim va tajribalarni o'zlashtirish imkonini berdi.

Ushbu assambleya doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Global yoshlar parlamentlari platformasini tuzish tashabbusi biz uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Davlat rahbari o'z chiqishida yoshlarning siyosiy hayotdagi ishtiroki muhim strategik yo'nalish



ekanini ta'kidlab va mazkur platformaning ilk forumini O'zbekistonda o'tkazishni taklif qildi.

Ayni damda Yoshlar parlamenti ushbu tashabbusni hayotga tatbiq etish yuzasidan dastlabki ishlarni boshlagan. Xalqaro tajribalar o'rganilmoqda, ekspertlar bilan maslahatlashuvlar olib borilyapti, xorijiy yoshlar parlamentlari bilan aloqalar o'rnatilmoqda. Maqsad bu platformani oddiy tadbir sifatida emas, balki doimiy ishlaydigan xalqaro hamkorlik mexanizmiga aylantirishdir.

Ibrohim JO'RABOYEV,
Oliy Majlis Senati
huzuridagi Yoshlar
parlamentlari raisi

Bugungi aniq reja — ertangi muvaffaqiyat

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi jadal davom etayotgan bugungi kunda biz yoshlar oldida ham qator muhim vazifalar turibdi.

Birinci navbatda, Yoshlar parlamenti faoliyatini to'g'ri va samarali yo'lga qo'yish maqsadida ish rejalarimizni aniqlab oldik. Unda ko'proq hudud yoshlari bilan ishlash, ularning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini ijobiy hal etish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish kabi aniq vazifalar belgilab olindi.

Yoshlar parlamentining qonunchilik faoliyati borasida fikr yuritadigan bo'lsak, parlament a'zolari Senat qo'mitalari hamda mahalliy Kengashlarda tashkil etiladigan qonunlar muhokamalarida muntazam qatnashib, qonunlarning hudud manfaatlariga mosligini tahlil etish va o'z fikr-mulohazalarini bildirish imkoniga ega bo'lmoqda.

Shuningdek, Senatning qonunchilik taklifini ishlab chiqish jarayonlarida ishtirok etish bilan birga, rejamizda yoshlarga doir qonunlarni takomillashtirish yuzasidan har yili kamida bittanda Yoshlar parlamenti taklifini ilgari surmoqchimiz. Bundan tashqari, hududlarda qonunlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish va targ'ib qilish, bu orqali yigit-qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borasidagi ishlar ham rejalashtirilgan.

Yoshlar parlamenti a'zolari nazorat-tahlil faoliyatida ham, qonunlar hamda davlat dasturlarining hududlardagi ijrosini o'rganish borasida ham faollik ko'rsatmoqda. Senat qo'mitalarining o'rganishlar bo'yicha tuziladigan ishchi guruhlari tarkibiga ham jalb etilganmiz. Masalan, Yoshlar parlamenti a'zolari Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab



chiqish, shuningdek, kiberkorupsiyaga qarshi samarali kurashishga qaratilgan mustahkam huquqiy bazani yaratish bo'yicha idoralarga guruh a'zoliciga qo'shilgan.

Shu bilan birga, Yoshlar parlamenti ish rejasiga navqiron avlod bandidagi masalasi puxta o'rganish, bolalar hamda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik kabi ixtilofli masalalarni oldini olishga qaratilgan harakatlar, xotin-qizlarning STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohasida o'qishga qiziqishini rag'batlantirish yo'nalishidagi targ'ibot ishlarida hamda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan tadbirlarda senatorlar bilan birgalikda faol ishtirok etish va jamoatchilik nazoratini olib borish masalalari kiritilgan.

Davlatimiz rahbari shu yilning 14-fevralida yoshlar bilan uchrashuvda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari huzurida Yoshlar maslahat guruhlarini tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edi. Bugungi kunda deyarli barcha viloyat, tuman va shahar Kengashlari huzurida Yoshlar maslahat guruhlari tuzilgan bo'lib, ushbu yigit-qizlar Yoshlar parlamentining yaqin hamkori, izdoshlaridir. Ular bilan ham ishlash bo'yicha alohida rejamiz bor.

Laylo ASLONOVA,
Oliy Majlis Senati
huzuridagi Yoshlar
parlamentlari raisi.

JAMIYAT TARAQQIYOTINI TA'MINLOVCHI KUCH

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan:

— so'nggi 7 yil ichida yoshlar masalalarini tartibga soluvchi **100 dan ortiq** qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi;

— 2020-yilda Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamenti tashkil etildi va shu kunga qadar uning a'zolari **100 dan ortiq** qonun loyihalari bilan birgalikda **80 dan ortiq** nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirdi.

Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti **100 nafar** a'zodan iborat:

— **84 nafari** — mahalliy Kengashlarning yosh deputatlaridan saylanadi (har bir viloyat, Toshkent shahri va Qoraqal-

pog'iston Respublikasidan **6 nafardan**);

— **10 nafari** — Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tavsiya etiladi;

— **6 nafari** — Senatning tegishli qo'mitasi tavsiyasiga asosan.

2025-yilgi tarkib quyidagicha:

— a'zolarning **95 foizi** oliy ma'lumotga ega;

— **13 nafar** a'zo davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan;

— **11 nafari** xorijdagi nufuzli oliygohlar bitiruvchilari;

— **30 foiz** a'zolar — ayollar.

Xalqaro aloqalar: asosiy yo'nalishlar va yangi tashabbuslar

Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti navqiron avlodning siyosiy faolligi va huquqiy ongini oshirish, ularni parlament tizimiga jalb etish hamda xalqaro miqyosda manfaatlarini ilgari surishga qaratilgan faoliyat olib bormoqda.

Yoshlar parlamenti MDH davlatlari, xususan, Belarus Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qirg'iz Respublikasi yoshlar parlamentlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Shu bilan birga, BMning turli tuzilmalari, jumladan, UNICEF, shuningdek, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) kabi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik istiqbolli kengaytirilayotir. Bu yo'nalishda yoshlarning global tashabbuslardagi faolligini oshirish, ularning salohiyatini qo'shma loyihalar va treninglar orqali rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Yoshlar parlamentining xalqaro hamkorlikdagi muhim qadamlardan biri bu 2025-yil aprel oyida Toshkent shahrida

bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasidagi ishtirokidir. Mazkur nufuzli tadbir doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yoshlar parlamentlari uchun global platforma tashkil etish va uning ta'asis forumini O'zbekistonda o'tkazish tashabbusini ilgari surdi. Bu yoshlar parlamentlarining xalqaro nufuzini mustahkamlash, ularning global darajadagi ovozi kuchaytirish va parlament tizimidagi institut sifatida rolini oshirish yo'lida muhim tashabbus bo'ldi.

Shuningdek, assambleya doirasida yosh parlament a'zolari forumining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi. Unda xalqaro hamkorlik,

barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat, tinchlikni ta'minlash va parlamentlararo aloqalarni kengaytirish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi. Ushbu forumda O'zbekiston Yoshlar parlamenti a'zolari ham faol ishtirok etib, xalqaro hamkorlik, barqaror taraqqiyot va ijtimoiy adolatga yoshlarning qo'shayotgan hissasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Bu chiqishlar xalqaro auditoriya tomonidan katta qiziqish bilan tinglandi va yoshlar nuqtayi nazarini ilgari surishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu tuzilmaning xalqaro faoliyati nafaqat yoshlar manfaatlarini ilgari surishga, balki ularni global miqyosdagi qarorlar



qabul qilish jarayonlariga jalb etishga, ovozi xalqaro maydonda yangrashiga xizmat qilmoqda. Bu boradagi sa'y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda va istiqbolida yanada keng qamrovli tashabbuslarning amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Sarvinov SUNNATILAYEVA,
Oliy Majlis Senati
huzuridagi
Yoshlar parlamentining
Xalqaro munosabatlar va
turizm masalalari
komissiyasi raisi.

“Faollar jamoasi” — kelajak liderlari bir safda

Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyati hamda unga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgarigan sayin uning faoliyatiga xayrixoh, a'zolari bilan bir safda ishlash istagidagi faol yoshlar safi ham kundand-kunga ortib bormoqda. Yoshlarni qonun ijodkorligi jarayonlariga jalb etish, ularning siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlash, ularni huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadida Yoshlar parlamentining “faollar jamoasi” tashkil qilingan.

Qisqa davr ichida mazkur jamoaga qo'shilish istagida bo'lgan 894 nafar yigit-qiz ro'yxatdan o'tdi. Birlamchi saralash jarayonlarini tashkil etish orqali ularning orasidan eng faol, dunyoqarashi keng va yaxshi takliflarni ilgari surgan 614 nafar yosh “faollar jamoasi”ga qabul qilindi. Shundan 282 nafari yoki 46 foiz o'g'il, 332 nafari yoki 54 foiz qiz bolalar hisoblanadi. Bu jamiyatimizda katta islohotlar amalga oshirilayotgani, xotin-qizlarning ijtimoiy faol bo'lishi uchun yangi imkoniyatlar yaratib berilayotgani tufayli qonun ijodkorligi jarayonlarida siyosiy faol ayollarning ulushi ortib borayotganidan dalolatdir.

Mazkur “faollar jamoasi” a'zolari hududlar kesimida shakllantirilib, o'z faoliyatlarini hududlardagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda yoshlar maslahat guruhlari bilan birgalikda tashkil qiladi. Shuningdek, iyun — yoshlar oyligi doirasida hududlar kesimida “faollar jamoasi” a'zolari uchun o'quv-seminarlar tashkil etilmoqda. A'zolari loyihalar boshqaruvi, notiqlik, jamoani shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlarni yuritish va foydali “kontent”lar tayyorlash yo'nalishlarida o'qitish hamda o'qish yuzasida maxsus sertifikat va a'zolik ishonch yorliqlarini topshirish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda media olamini eng kuchli va ta'sir doirasi keng qurol sifatida e'tirof etish mumkin. Taraqqiy etgan texnologiya asrida insonning kundalik hayotini media olamimiz, ayniqsa, ijtimoiy



tarmoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yoshlar parlamenti faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazish, yoshlarda xabardorlik hissin oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalar tashkil qilindi. Qolaversa, xalqaro hamjamiyatni ham faoliyatimiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Yoshlar parlamentining rasmiy sayti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda 5 mingdan ko'p yoshlar rasmiy sahifalarimizni faol kuzatib kelmokda.

Shuningdek, media olamidagi ishlarimizni sifatli va tartibli tashkil etish maqsadida media jamoani shakllantirdik hamda bir yilga mo'ljallangan reja ishlab chiqdik. Bugungi kunda media jamoamiz bilan birgalikda “Yengilmas” filmi, “Siz qonuni bilasizmi?”, “Yoshlar uchun imkoniyat”, “Adabiyot nador?” va “Yoshlar news” media loyihalari ustida ish olib bormoqdamiz. Yoshlar oyligi doirasida barcha media loyihalarimizni ommaga taqdim qilish niyatidamiz.

Azizbek OCHILBOYEV,
Oliy Majlis Senati
huzuridagi
Yoshlar parlamenti raisi
o'rinbosari.
(“Xalq so'zi”).

Korrupsiya — shunchaki jinoyat emas, balki millatga xiyonat

Yoshlar parlamenti faoliyatining ilk kunlaridanoq Yoshlar huquqlari, qonunchilik va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari komissiyasi tashkil etilib, vujudga kelgan masala yuzasidan atroflicha o'rganish ishlarini amalga oshira boshladi. Bunda Senatning tegishli qo'mitasi, mas'ul idora va vazirliklar, yoshlar faollari, ekspertlar bilan birgalikda muammoning ildizi va yechimlari ustida tadqiqot olib borildi. Xorijiy va sinovdan o'tgan milliy tajribalar mohiyati o'rganib chiqildi.

O'rganishlar natijasi o'laroq, komissiya tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini oshirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonunchilik taklifi ishlab chiqilib, ko'rib chiqish uchun dastlabki tarzda rahbariyatga taqdim etildi. Mazkur qonun loyihasida yoshlarning huquqlarini yanada mustahkamlashga, korrupsiyaviy omillarga qarshi kurashishda faol bo'lishga, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida ish olib

borishga, shuningdek, bu sohada jonbozlik ko'rsatgan yoshlarni rag'batlantirishga qaratilgan normal bor bo'lib, amaldagi muammolarning qisman bo'lsa-da kamayishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, komissiyaning o'rganishlari natijasida yoshlar uchun “Yo'l xaritasi” bo'lib xizmat qiladigan bir necha uslublar ishlab chiqildi. Jumladan, yoshlarga korrupsiyaning jamiyatga va shaxsga salbiy ta'siri, uning huquqiy oqibatlari haqida tushuntirish ishlarini olib borish, universitetlarda, maktablarda korrupsiyaga qarshi maxsus kurslar,

seminarlar tashkil etish hamda huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim, deb topildi. Bu yoshlarning huquqiy madaniyatini oshiradi, ularning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantiradi. Huquqiy savodxonlikni oshirish orqali yoshlar o'z huquqlarini himoya etish va qonuniy yo'llar bilan harakat qilishni o'rganadi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, onlayn arizalar hamda ta'lim va ishga qabul qilish jarayonlarining shaffofligini

ta'minlash maqsadida onlayn platformalarni rivojlantirish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish ham dolzarb masalalardan. Raqamlashtirish inson omilini kamaytiradi va korrupsiya holatlarining oldini oladi. Shaffoflik esa adolat tamoyilini mustahkamlaydi, yoshlarda davlatga bo'lgan ishonchni oshiradi. Ochiq ma'lumotlar portallari orqali davlat xizmatlarining hisobotlarini e'lon qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yoshlar tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va faol fuqarolarni korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlariga jalb etish tartibini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish kerakligi belgilandi. Bu bilan jamoatchilik nazorati davlat organlarining faoliyatini shaffoflashtiradi va ularni mas'uliyatli bo'lisga undaydi. Yoshlar o'zlarining tashabbuslari bilan korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yoshlar parlamenti doimiy ravishda bu illatga qarshi kurashda

faol bo'lisga intilib kelmoqda. Bu yo'lida, albatta, rahbariyatning o'rni va ko'magi beqiyos. Umuman olganda, yoshlar huquqlarini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Korrupsiyaga qarshi kurash bu bir martalik kompaniya emas, balki doimiy, kompleks yondashuvni talab etadigan milliy vazifadir. Yosh avlod vakillari faqat nazorat obyektiga emas, balki halollikni targ'ib qiluvchi, o'z atrofidagi muhitni o'zgartirish oluvchi subyekt bo'la olsagina biz ko'zlagan milliy maqsadimizga yetgan hisoblanamiz.

Ilyosbek ABDURAHMONOV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi
Yoshlar parlamentining
Yoshlar huquqlari,
qonunchilik va korrupsiyaga
qarshi kurash masalalari
komissiyasi raisi.

MAMLAKAT BO'YLAB

YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR

Ibrat Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumanidagi Qarajar qishlog'ida Toshkentbay, Maxsetbay, Yerkinbaydan

keyin qizaloq dunyoga keladi. Otasi Yeshan bundan xursand bo'lib, elga osh beradi. Onasi Aniypa opaning "Nega o'g'illar emas, qiz farzand tug'ilganida to'y

qilyapsiz?" degan savoliga otasi "Uch o'g'lim bir to'be, bir qiz bir to'be", ya'ni uchta o'g'lim bir tomon, bitta qizim bir tomon, deb javob beradi.

— Yangi kelin bo'lib tushgan paytlarimda uyimizga mehmon keldi. O'n kilometr olisdagi do'konga borib kelish kerak bo'ldi, — deydi Zulfiya Turdimuratova. — Shunda mototsiklni

MO'YNOQDA MAKTAB OCHGAN MUALLIMA

Dovruq bilan dunyoga kelgan o'sha qizaloq Zulfiya Turdimuratova bo'lib tanilguncha ancha yo'llarni bosib o'tdi. Va birinchi sinf muallimi Rahima Jiyamuratovaga havas qilib, pedagogik kasbini tanlaydi.



Qoraqalpog' davlat universitetida qoraqalpog' tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil olgan muallima oliy ma'lumotli bo'lib ovuliga qaytadi. Dastlab o'zi tug'ilib o'sgan qishloqdagi maktabda yuqori sinf o'quvchilariga dars beradi. 1998-yil Mo'ynoq tumanidan 30 kilometr olisdagi Jalg'iz terek qishlog'i aholisi undan boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berishini iltimos qilishadi. Qishloqda o'tgan asrlarda qurilgan maktab bo'lib, keyin buzib tashlangan, yangisini qurish uchun o'quvchilar soni yetarli emas deb topilgandi. Bu yerlik o'g'il-qizlar o'z qishlog'idan qariyb to'qqiz kilometr uzaytirilgan joylashgan 9-maktabga borib o'qishga majbur bo'ladi. Uzoq yo'l maktab o'quvchilaridan qo'shimcha vaqt va kuch talab qilar, ayniqsa, quyi sinf bolalari uchun darsga borish mashqatq edi.

O'qituvchi Zulfiya Turdimuratova hashar yo'li bilan ixchamgina bo'lsa ham, maktab qurish harakatiga tushadi. Dastlab qurilgan maktabda bolalarni o'qitishni boshlaydi. Maktab bitta xonadan iborat, na pol va na stol-

stul bor edi. Muallima har kuni ertalab pechkaga o'tin yoqar, sinf xonasini isitib, bolalar kelishiga tayyorlardi. U boshlang'ich sinfdagi 4 ta sinfga bir xonada dars berishga to'g'ri kelganda ham qiyinchiliklarga bo'lgan egmaydi. Bir vaqtning o'zida 1-sinfga harf o'rgatib, 4-sinfga yozma ish yozdirgan muallimaning kasbiga sadoqati va shijoatini ovuldagilar ham qadrlardi. Ammo ko'p o'tmay qamishdan qurilgan maktab buzib tashlanadi. Ovuldagi bolalarning ta'limini o'ylab turlarni tonglarga ulayotgan ustozidan xabar olgani kelgan o'quvchilar ham undan biror imdod kutardi. Ularning o'qishga bo'lgan chanoqligi va ko'zlaridagi ertangi kunga bo'lgan umid Zulfiya

opaga yana kuch bag'ishladi. Qishlog'ida quyi sinf o'quvchilari uchun maktab qurish harakatiga tushdi. Turmush o'rtog'i bu g'oyani qo'llab-quvvatladi. Er-xotin bor chorvasini sotib, qolganiga bankdan kredit oladi. Va maktab binosi qurilishi boshlanadi. — Dastlab kredit olish niyatimiz yo'q edi, o'z mablag'imizga qurishni niyat qilgandik, — deydi ma'rifatparvar muallima.

— Imorat qurish oson ish emas, uni bitirguncha og'ixonadagi qo'y-echkilargacha sotdik. Ular tugagach esa kredit olishga to'g'ri keldi. U paytlar kredit olishning o'zi bo'lmadi, oylik maoshimni hisoblab, kredit to'lashga qobiliyati yo'q deb topishdi. Keyin kafil izlab, ko'p ovora bo'ldim. Bir kuni uyimizga mehmonga kelgan Marjon opadan kredit olishimga yordam berishini so'rab iltimos qildim. U kafil bo'lgach, shu zahotiy qo'lda bo'ldim. 2011-yilda shu kredit evaziga maktab qurildi. Bolajonlar yana o'z qishlog'ida boshlang'ich ta'lim olish imkoniga ega bo'ldi.

Yangi maktab qurilgach, Zulfiya opadan boshqa fidoyi o'qituvchi topilmadi. Bir vaqtning o'zida

boshlang'ich sinflarga 26 soat dars berdi. Maktabda nima yumush bo'lsa — pol yuvishni, sinf xonalarni jihozlash yoki pechkaga o'tin yoqishni, hammasini qilaverdi. Oilasi va farzandlari tarbiyasiga ham, mahalla-ko'yning to'yu ma'rakalariga borishga ham vaqt topdi.

— Bugun o'qituvchilarga yaratilgan shart-sharoitlarga havasim keladi. Ular internet orqali zamonaviy metodik qo'llanmalar bilan tanishish imkoniyatiga ega, — deydi Zulfiya opa. — Ilgari biron masalaga javob topish uchun qanchadan-qancha kitoblarni titishga to'g'ri kelardi. Ayni paytda mashg'ulotlarga tayyorgarlik asnosida internetdan mavzuga oid yangiliklarni to'plash, doimiy tahlil etish imkoniyati bor. O'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lib mavzuni samarali tushuntirishning maqbul usullari haqida o'ylashi, fikrlashi, turli rejalar tuzishi kerak. Chunki yangicha pedagogik texnologiya va uslublarni o'qituvchi, darslikdagi gaplarni quruq so'zlab berish bilan kifoyalanish o'quvchilarni o'qishdan bezdiradi.

— Zulfiya opa dengiz ko'rgan xalqning qizi. Fe'lida ham mo'ynoqliklarga xos bo'ron turganda to'liqlarni jo'shtiradigan ko'tarilish, shamol tingach, sokinlashish odati bor. Otasi unga akalarga o'rgatgan barcha ishlarni o'rgatgan.

bir tepib o't oldirdim-da, qayinsingilmini o'tqazib, haydam keldim. Qishloqdagilar yangi tushgan kelinchakning mototsikl minib ketayotganini ko'rib hayron bo'lishgan. Keyin bilsam, ular mototsikl mingan ayolni birinchi ko'rishi ekan. Bolaligidan otamdan mototsikl boshqarish, hatto miltiq otishni ham o'rganganman...

Xullas, mo'ynoqlik oddiy muallima maktab qurish uchun olgan kreditini o'z maoshidan oyma-oyma to'lab bordi. Xalqning bolalarini bilimni qilish maqsadida o'z daromadidan voz kechish har kimning ham qo'llan kelavermaydi. Bu davlatning ishi deguvchilar ko'p. Ammo Zulfiya opa Vatanga nima berdim deb emas, men Vatanga nima berdim deb yashaydi. Shuning uchun ham muallimaning kamtarona mehnati Prezidentimiz tomonidan II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

— Men o'qituvchilik kasbini tanlaganimdan, kelajagi buyuk O'zbekistonimizga munosib avlodlar tarbiyalash ishiga oz bo'lsa-da hissa qo'shganimdan faxrlanaman, — deydi bugungi kunda farzandlar ardoqida, o'ndan ortiq nevaralarning suyuqli buvijonisi bo'lib hayot gashtini surayotgan fidoyi muallima.

G'ayrat OTAJONOV ("Xalq so'zi").

Shukronalik Momolarimiz nonni behishtning ne'mati, deyshadi. Rivoyat sanasak-da, nonga, hatto tandirga ham ehtiromimiz ulug'. Qanchalik yozmaylik yoki rang-barang tasvirlarda suratga olmaylik, nonning ta'mini ifodalash mushkul. Lekin u bilan bog'liq xotiralari bir umr esdan chiqmaydi. Ishonmasangiz, bir asrni qaratgan "Shuhrat" medali sohibasi Hamro momo Muslimovning xotiralari tinglang! Momo bir yuz ikki bor bug'doy pishig'i bilan yuzlashgan. Ikki tishlam nonidan tortib, qurg'oqchilik, qahatchilik, qimmatchilik va ocharchilik, qo'yingki, barchasi xuddi kechagidek yodida. Bugun u hamqishloqlari yetishtirgan bug'doy nonini ko'ksiga bosganicha olis yillarning non bilan bog'liq uqubatli kunlaridan hikoya qiladi.



O'ZINGNING DONING — BEMINNAT NONING

— O'roqdan so'ng, bolalar o'ntagina mashoq terib kelishdi, — deya xotirlaydi Hamro momo. — Esim ketmasa, to'rvani daraxtga ilib qo'yamanmi? Izma-iz brigada bilan tabelchi kirib keldi. Qamchini tortib, rayonga olib ketishdi. Kechqurun qaynim ko'jayini olib borib, men bilan almashirdi. O'sha yoqdan sho'rlikni suv ombori qazishga jo'natishdi. Nogiron bo'lib qaytdi, o'nglanmadi...

Bugun Qiziltepa dalalarida ham bug'doyga o'roq tushgan. Fermerlar birin-ketin yiqqan donini umumiy xirmonga to'kmoqda. Bultur kuzdan buyon o'zaro suhbatlarda berilayotgan "G'alla qanday?" degan savollar o'rnini endi davrlarda samimiy shukronalik va mamuniyat egallagan. Shu bahona moziyga bot-bot qaytilib, bugungi dorilamon kunlardan dillar yayraydi.

— O'tgan asrning 50-yillari bo'lsa kerak, onam rahmatlik bir piyolagina jo'xorini yurochodan o'tkazib, opam ikkimizga atala tayyorlab beradi va shunga ham to'ymay qolardik, — deydi Safar bobo Qobilov. — Og'ir yillar edi, odamlar kunjara yeb, shishib ketganligini eshitardik. Shukrki, un taniab, non yopadigan zamonlarni ham ko'rdik.

O'zingning doning, beminnat noningga ne yetsin! Lekin mamlakatda g'alla mustaqilligi oson kechgani yo'q. Odamlarimizning uyni, mol-mulkini, osoyishtaligini qo'riqlagan ichki ishlar organlari dalada maysa urgan g'alla-zorlarni qo'riqlashga ham jalb etildi. G'alla-zorlarni chorva mollari payhonidan asrash bo'yicha Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari qabul qilinib, qat'iy choralar ko'rilindi. — Maktabdan qaytgach, tengqurlarimiz bilan mol o'tlatishga chiqardik, — deydi jaloyirlik Odil Oripov. — Mollarni o'ynay yuborib, o'zimiz futbol o'yinardik. Bir safar Zarifning g'unajini g'allaga tushgan ekan, ko'p mol ichida bilmay qolibmiz. G'alla maydonining ichida

Temur ESHBOYEV ("Xalq so'zi").

O'zimizning mahsulot

Kavrak xalq tabobatida ham, farmatsevtika sanoatida ham juda qadrlanadi. Yer yuzida kavrakning 170 dan ortiq turi mavjud. Yurtimizda uning 50 ta turi uchraydi. Jahon bozorida o'ta xaridorig ushbu o'simlikdan yaqin-yaqingacha hech qanday iqtisodiy manfaat ko'rilmasa, nari borsa aholi o'simlik ildizini o'z bilganicha kavlal olib, brakonyerlarga suvtekinga pullardi. Oqibatda yovvoyi holda o'sadigan kavraklar ham tobora yo'qolib borayotgandi.

YORMOZOR KAVRAKLARI EKSPORT QILINMOQDA



istiqbolda ko'hna qit'aga kavrak eksportini yo'lga qo'yish. E'tiborlisi, Farg'onada yaqin kelajakda maxsus plantatsiyalar tashkil etish va shu yerning o'zida sanoat usulida qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish rejalashtirilmoqda.

Bugun esa qarashlar o'zgardi. FarQona shahridagi "Yormozor" MFY hududida 3,5 gektar yerda ushbu o'simlik yetishtirilmoqda. Bu yiliga o'rtacha 2 tonna hosil olib, dunyoning o'nga yaqin davlatiga eksport qilish imkoniyatini bermoqda. Mahalladagi hokim yordamchisi Bahodirjon Homidov tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan loyiha doirasida 65 ta ish o'rnini yaratildi. Ayni paytda loyihaning keyingi bosqichini amalga oshirish orqali ekin maydonlarini ko'paytirib, yuqori daromadli ish o'rinlarini kengaytirish maqsad qilingan.

— Yormozorda jahon bozorida xaridorigir "Kuhiston" kavragi parvarishlanmoqda, — deydi dorivor o'simlik yetishtirish bo'yicha mutaxassis Nurbek Begimqulov. — 3,5 gektar yerda 200 ming tup kavrak o'simgili o'smoqda. Iyun oyining oxiridan boshlab kuz fasligacha har tup kavrakdan o'rtacha 10 grammdan hosil olinadi. Agrotexnikasi qiyin emas, kamsuvligi sababli kamxarj va sardaromad o'simlik sanaladi.

Aytish joizki, kavrak ko'p yillik o'simlik bo'lib, o'sish muhiti va ob-havo sharoitiga qarab 1,5-2 oy yashaydi. Uning bo'yi 1,5-2 metr gacha, ildizi 15 — 20 santimetrgacha yetadi. Odatda dorivor mahsulot sifatida ildizi, bargi, po'stlog'i, guli, mevasi va boshqa qismlaridan tayyorlanadigan shirasi, kukuni va nastoykasidan foydalaniladi. Asosan, yelimi — ildizidan olinadigan shirasi tibbiyotda keng qo'llaniladi. Bahor faslida foydali vitaminlar, mikroelementlar o'mini to'ldirish orqali organizmni turli zararli moddalardan tozalaydi, ruhiy te'tiklik beradi.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

BARMOQLAR YARATAYOTGAN MO'JIZA

O'zbek milliy kashtado'zligi xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u kiyimlar va ashyolarni bezash hamda ro'zg'or bezak buyumlarini tayyorlashda qadimdan qo'llanilgan.

Kashtado'zlik

G'allaorolik Xosiyat Yaminova kashtachilik sohasini amaliy san'at va kasb darajasiga olib chiqqan mohir kashtado'zlardan. Qarangi, uning tadbirkorligi ham kashtachilikka asoslangan. Hunarmandchilik sohasida doim izlanadi, tadqiq qiladi va o'rganganlarini o'zi yashayotgan G'afur G'ulom nomidagi mahalla xotin-qizlariga ham o'rgatadi. Xosiyat opa hunarining ortidan turli festivallar, tadbir va ko'rgazmalarda ishtirok etib, milliy madaniyatimizni jahonga ko'z-ko'z qilmoqda. U shogirdlariga kashta tikish sirlarini o'rgatarkan, bu shunchaki hunarmandchilik yoki amaliy san'at emas, balki unda biz o'rganishimiz, asrashimiz va kelajak avlodga yetkazishimiz kerak bo'lgan chuqur falsafa borligini doimo uqtirib keladi.



— Milliy hunarmandchilik mahsulotlarimiz jozibadorligi, yaratilish tarixi hamisha chet elliklar e'tiborini tortib kelgan, — deydi hunarmand. — Ular ko'proq to'qima jildlarni xarid qilishi barobarida kashtalarning turlari, nomi va kelib chiqishi, tarqalishi, matosi, hatto tabiiy ipigacha qiziqib so'raydi. Bunday

yostiqlarning bittasini ikki kunda tikib bitiraman. Ularni tayyorlashda shotik bo'z, ipak va urug'oq matolardan foydalaniladi. Sayyohlarga o'zbek milliy kashtachilik san'ati, tikish va ramzlari haqida so'zlab berganimizda hayratga tushadi. Darhaqiqat, kashtado'zlikdagi har bir tasvir benazir va chuqur mazmunga ega. Deylik, anor — bu oila ramzi, farovonlik belgisi. Bodom nuxsa tasvirlari baraka, ro'zg'or butligi va to'kinlikka ishora. Kashtalarimizda anor, bodom, qalampir nuxsa naqshlar ham ko'p uchraydi. G'allaorol hududida ko'proq doira, aylana shaklda, o'ziga xos uslubda kashtalar tikiladi. Aylana shakli Yer sayyorasini bildiradi.

Rustam NURMATOV ("Xalq so'zi").

«XO'JAIKON» SHIFOBAXSH TUZ G'ORI

Surxondaryoning yana bir noyob va go'zal boyligi — bu "Xo'jaikon" tuz g'ori. U Sherobod tumanidagi Oqtoshota qishlog'ida, Ko'hitang tog' tizmalari etaklarida, dengiz sathidan 1200 metr balandlikda, Janubi-Sharqiy yonbag'irda joylashgan. Tabiatning betakror in'omi bo'lgan bu g'or o'zining g'aroyib ko'rinishi, tuzdan hosil bo'lgan noyob shakllari va musaffo havosi bilan sayyohlarni maftun etadi. Uzunligi 200 metrga teng tashkil etadigan g'or devorlari uch santimetrgacha tuz qatlami bilan qoplangan. Ichki yo'lakhasida tuz eritmali shifobaxsh suv mavjud. G'or ichkarisidagi beshta xona harorati, namligi, bosimi, tuzdagi makro va mikro elementlari bilan keskin farq qilishi haqiqiy mo'jiza. Yozning chillasida ham xonalardagi harorat 14 — 25 darajagacha iliqlikni tashkil etadi.



Tibbiyot turizmi

Mutaxassislarning aytishicha, g'ordagi muhit yuqori nafas olish a'zolari, jumladan, yurak-qon tomir kasalliklarining 1-2 bosqichlari, endokrin tizimi kasalliklari, ayniqsa, buyoq kasalligiga shifo. Qon bosimini me'yorslashtirib, bronxit, astma, yosh bolalarda surunkali laringit, katta va kichik yoshdagi rinit, pollinoz, zotiljam, o'pka shamollashi, asab sistemasi kasalliklarini samarali davolaydi. Sho'r suvi stomatit, allergik dermatit, parodontoz, teri kasalliklarini davolashga yordam beradi. "Xo'jaikon" tibbiyot turizmini rivojlantirish uchun juda qulay hudud. Xususan, tabiat qo'nyida tinchlik va huzur izlaganlar uchun ajoyib manzil. Bu yerda sog'ligingizni tiklaysiz, miriqib

deydi Barchinoy Panjiyeva. — Muolajalar va shifobaxsh muhit ta'sirida o'zimiz ancha yaxshi his qilmoqdaman. Havodagi tuz zarrachalari nafas yo'llarini tozalaydi. Ichki a'zolar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yurtdoshlarimga, xususan, doimiy charchoq, nafas yo'llari xastaliklari yoki stressdan aziyat chekayotganlarga bu yerga tashrif buyurishni tavsiya qilaman. "Xo'jaikon" tuz g'ori nafaqat tabiatning noyob mo'jizasi, balki yurtimiz tarixiy va madaniy boyliklaridan biri sifatida ham e'tirof etilgan. Ushbu g'orni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida 2019-yil 4-oktyabrda

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga" kiritilgan. Bu bilan "Xo'jaikon" rasman davlat muhofazasiga olingan. Aytish joizki, ushbu tuz koni ilk bor 1987-yilda ochilgan bo'lib, 1989-yildan boshlab unda tuz ishlab chiqarish ishlari boshlangan. Bugungi kunda "Xo'jaikon tuz koni" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan umumiy qiymati 25 mlrd. so'mlik yodlangan osh tuzi qadoqlash korxonasi samarali faoliyat yuritmoqda. Bu korxonada nafaqat



bozorga sifatli mahsulot chiqarmoqda, balki yuzlab insonlarni ish bilan ta'minlab, hudud iqtisodiyotiga ham salmoqli hissa qo'shayotir.

Farhod ESONOVI ("Xalq so'zi").

ENG YAXSHI MAQOLALAR MUALLIFLARI TAQDIRLANDI

"Xalq so'zi" va "Narodnoe slovo" gazetalarini tahririyati tomonidan mualliflarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ular o'rtasida sog'lom ijodiy raqobatni kuchaytirish maqsadida "Eng yaxshi maqolalar" tanlovi o'tkazilishi an'anaviy tus olgan.

Kecha mazkur tanlovning 2025-yil birinchi yarim yili yakunlari bo'yicha g'oliblari taqdirlandi.

Tobora ommalashib borayotgan tanlovga mamlakatimiz ziyolilari, turli soha olimlaridan yuzdan ortiq ijodiy ishlar qabul qilindi hamda ularning aksariyati gazetalarimizda chop etildi. Hakamlar hay'ati ular orasidan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mohiyati, ahamiyati tahliliy ruhda, qiziqarli va ta'sirchan usul hamda uslubda ochib berilgan, samimiy va sodda tilda yozilgan eng yaxshi maqolalarni saraladi.

Natijalarga ko'ra, "Xalq so'zi" gazetasi bo'yicha pedagogika fanlari doktori, professor Sobitxon



Turg'unov (2025-yil 21-yanvardagi "Ta'lim taraqqiyoti sari dadil qadam" sarlavhali maqolasi uchun), Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor Shuhrat Boymurodov (2025-yil 19-iyundagi "Nazariya va amaliyot uyg'unligi bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltiradi" sarlavhali maqolasi uchun), Andijon davlat pedagogika instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor Baxtiyor Rasulov (2025-yil



Alixon UTARBEKOV olgan surati.

24-iyundagi "Barqaror kelajakka dadil qadam" sarlavhali maqolasi uchun) e'tirof etildi.

"Narodnoe slovo" gazetasi bo'yicha Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi G'afurjon Muhamedov (2025-yil 19-martdagi "Соответствуют требованиям времени" sarlavhali

maqolasi uchun), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor To'liqin Teshaboyev (2025-yil 27-maydagi "Членство во Всемирной торговой организации: значимый шаг на пути к национальным селям" sarlavhali maqolasi uchun), Samarqand davlat chet tillar instituti

rektori, professor Bahodir Xoliqov (2025-yil 25-iyundagi "Социальное государство: реальность и перспективы" sarlavhali maqolasi uchun) g'olib deb topildi.

"Xalq so'zi" gazetasi e'lon qilingan "Kuchli davlatni bilimli yoshlar quradi" sarlavhali maqolasi hamda gazeta targ'ibotidagi faol ishtiroki uchun "Turon" fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori Bahodir Hasanov rag'batlantiruvchi mukofotga loyiq ko'ildi.

E'tirof etilganlarga tahririyat sovg'asi va diplomlar topshirildi. Taqdirlanganlar har ikkala gazeta o'zlarining fikr-mulohazalarini, taklif va tashabbuslarini xalqqa yetkazishda chinakam minbar vazifasini o'tayotganini aytib, o'z minnatdorliklarini bildirdi.

Tanlov shu yil oxirigacha davom etadi.

"Xalq so'zi".

«SOHIL»DAGI MAROQLI HORDIQ

Kosonsoy tumanidagi "Sohil" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi — bir tomonida sharqirab oqayotgan soy, bir tomonida to'q bo'lgan bahavo maskan. Unda 1-bosqichda respublikamizning shahar va tumanlaridan kelgan 160 nafar o'g'il-qiz maroqli hordiq oldi. Ayni paytda oromgoh faoliyatini davom ettirmoqda.

Yozgi ta'til — 2025



"Sohil"da beshta guruhdan iborat dam oluvchilarga oliy ma'lumotli, tajribali 16 nafar tarbiyachi mas'ul qilingan. Har bir kun o'z nomi bilan belgilanib, turli madaniy ma'rifiy va ommaviy tadbirlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. "Bolalar festivali kuni", "Do'stlar davrasi" interaktiv o'yini, she'rilar va qo'shiqlar tanlovi, sport musobaqalari, vatanparvarlikni tarannum etuvchi filmlar namoyishi, "Zakovat" tanlovi shular jumlasidan.

— "Yosh kitobxonlar" ringi, "Talent shou" hamda "Karaoke kechasi" bolajonlarga o'lam-olam zavq bag'ishlaydi, — deydi oromgoh direktori Komiljon Nortoziyev. — Bunday tashqari, turizm va o'lkashunoslik, ona tabiatni asrash mavzuidagi tadbirlar juda maroqli o'tmoqda. O'smirlarning intellektual salohiyati shakllanishiga, jismonan sog'lom voyaga yetishiga hissa qo'shayotganimizdan mamnunmiz. O'tkazilgan barcha tanlov, musobaqalar yakunida g'oliblarni diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlaymiz. "Dolzab 90 kun" dasturi asosida amalga oshirilayotgan ushbu tadbirlar o'quvchi-yoshlarning sog'lom, bilimli va faol bo'lib ulg'ayishi uchun zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.



GIYOHVANDLIK — ASR VABOSI

Giyohvandlik — jamiyat uchun jiddiy muammo. Asr vabosi bo'lgan ushbu illat nafaqat salomatlikka, balki iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarga ham jiddiy zarar yetkazadi. U butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan global ofat bo'lib, har qanday jamiyat uchun xavflidir. Shu bois boshqa taraqqiyparvar davlatlar qatorida mamlakatimizda ham mazkur illatga qarshi keskin choralar ko'rib kelinmoqda.

Tadbir

Kecha 26-iyun — Xalqaro narkotik moddalarni suiste'mol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni munosabati bilan Davlat xavfsizlik xizmati hamda respublika huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida narkobiznesga qarshi kurash davomida musodara etilgan giyohvandlik vositalarini yo'q qilishga qaratilgan navbatdagi tadbirda shular xususida atroficha so'z yuritildi.

Qayd etilganidek, an'anaga ko'ra joriy yilda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi tomonidan mutasaddi davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda "Biz hayotni tanlaymiz!" shiori ostida tadbirlar tashkil etildi.

Tadbirda o'tgan bir yil davomida O'zbekiston hududida huquq-tartibot organlari tomonidan noqonuniy muomaladan musodara qilingan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari va prekursorlarni yo'q qilish marosimi onlayn tarzda namoyish etildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining ma'lum qilishicha, yoqish marosimida jami 2 tonna 135 kg. 188 gr. giyohvandlik vositalari yo'q qilindi.

Tadbirda giyohvandlik vositalariga bo'lgan tobeklikdan davolanib chiqqan hamda narkojonoyat uchun jazoni o'tab kelgan fuqarolarga so'z berildi. Narkotiklar changalidan qutulib, yangi hayotni boshlagan ushbu shaxslar ramziy tugmani bosib, giyohvand moddalarni yo'q qilish jarayoniga start berishdi.

Tadbir doirasida "Biz hayotni tanlaymiz!" shiori ostida o'tkazilgan videoreklam tanlovi hamda "San'at giyohvandlikka qarshi!" nomi ostida uyushtirilgan rasmlar tanlovi g'oliblari va sovrindorlari taqdirlandi.

Shundan so'ng "Mutlaq yovuzlik" nomli hujjatli filmning qisqa roligi ishtirokchilarga namoyish etildi.

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi").

AGRAR SOHA TARAQQIYOTI — OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI KAFOLATI

Dunyo aholisining muttasil o'sib borishi, iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslarning cheklanganligi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yilmoqda. Bugungi kunda har bir davlat o'z aholisini sifatlil va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga intilmoqda. Bu borada agrar soha taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi.



tashkil qilish uchun aholiga bo'lib beriladi. Paxtachilikda 40 foiz maydonda Xitoyda o'zini oqlagan ilg'or tajriba joriy etiladi.

Urug'chilik — yuqori hosildorlik omili

Yuqori hosildorlikning birinchi omili, bu — urug'chilik. Xitoy qishloq xo'jaligi akademiyasi ekinlar urug'i va ko'chatchilikda katta tajribaga ega. Bizda esa qishloq xo'jaligi bo'yicha 14 ta ilmiy institut, 55 ta urug'chilik xo'jaligi bo'lgani bilan yangi nav va agroteknologiya masalasida oqqoqlik bor. Dehqonlar mahalliy urug'dan manfaat ko'rmagan uchun chet elnikini ekyapti. Shu bois Yuqori Chirchiq tumanidagi Agroxizmatlar markazida Xitoy tajribasi asosida urug'chilik va ko'chatchilikni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

"Raqamli qishloq xo'jaligi" yagona integratsion platformasi takomillashtirilib, mahsulot yetishtiruvchilarga "bir darcha" tamoyili asosida kompleks xizmat ko'rsatish tartibi yo'lga qo'yilmoqda. Qishloq va mahallalarni obod

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish, suvdan oqilona foydalanish, zararkundalarga qarshi kurashish va oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, yangi navlar hamda hibridlarni yaratish, yer unumdorligini oshirish va suv tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqish — ustuvor vazifalardan biri.

Qolaversa, yo'llar, elektr ta'minoti, suv ta'minoti, aloqa hamda bozorlarni rivojlantirish yo'li bilan qishloq infratuzilmasini yaxshilash ham kun tartibida. Agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, fermerlar va mutaxassislarining malakasini yuksaltirish, yerlarni melioratsiya qilish, eroziyaga qarshi kurashish, cho'llanishning oldini olish hamda yerdan foydalanishning barqaror usullarini joriy etish zarur.

Suv tejoychi texnologiyalar — davr talabi

Agrar tizimi rivojini zamonaviylashtirish va hosildorlikni oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularning faoliyatini ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etish, olimlarning malakasini oshirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

Suv tejoychi quurilmalarni rivojlantirish, tomchilatib va yomg'irliab sug'orish kabi zamonaviy usullardan foydalanish kengaytirilib, yerlarni lazerli tekislash bilan bog'liq innovatsion texnologiyalar tatbiq qilinayotgani, qishloq xo'jaligini zamonaviy kombaynlar, traktorlar va boshqa ilg'or texnikalar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani bugungi tahlikali zamonda aholining sifatlil hamda arzon oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojini qondirishda muhim o'rin tutmoqda.

Qolaversa, mamlakatimiz qishloq xo'jaligiga innovatsiyalar hamda investitsiyalar keng jalb etilmoqdaki, ushbu yo'nalishda erishilgan natijalar amalda o'z ifodasini topayotir. Misol uchun, sohadagi tub islohotlar sabab paxta hamda g'alla hosildorligi oshdi. Qayta ishlash texnologiyalarini qo'llash, saqlash sharoitlarini yaxshilash va logistikani takomillashtirish orqali meva-sabzavot eksporti hajmi o'sdi. Suv tejoychi texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi suvdan foydalanish hajmini sezilarli darajada kamaytirdi. Energiya tejoychi uskunalardan foydalanilayotgani esa qishloq xo'jaligi korxonalarining energiya sarfini pasaytirdi.

Sayfulla ALIBEKOV, Toshkent davlat agrar universiteti Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi.

Tahlil

Oziq-ovqat xavfsizligi, bu har bir insonning faol va sog'lom hayot kechirishi uchun yetarli miqdorda, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy hamda iqtisodiy imkoniyatining mavjudligidir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorligining muhim sharti hisoblanadi. Agrar tarmoq rivojini esa hosildorlikni oshirish, yangi yerlarni o'zlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga imkon beradi.

Ilm-fan — qishloq xo'jaligining tayanchi

Ta'kidlash kerakki, so'ngi yillarda global iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xo'jaligi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotir. Ana shunday murakkab sharoitga qaramasdan, o'tgan yilda yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadon ortiq paxta, 16 million tonnadon ziyod sabzavot va poliz mahsulotlari, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadon ko'p go'sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirildi.

Albatta, bunday yutuqlarga erishishda keyingi yillarda qishloq xo'jaligi rivojiga berilayotgan yuksak e'tibor, tarmoqda tub tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablarini asosida yo'lga qo'yilayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, sohaga ilg'or agroteknologiyalar, ilm-fan va innovatsiya yutuqlari keng joriy etilayotgani ijobiy natija bermoqda. O'tgan yili 100 ming gektar maydonda kasallik hamda zararkundalarga chidamli serhosil g'oz va navlari ekilib, ulardan mo'l hosil yetishtirilgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

G'allachilikda resurs tejaydigan zamonaviy agroteknologiyalarni qo'llash natijasida o'rtacha hosildorlik birinchi marta 85 sentnerga yetkazildi. Olti mingdan ortiq tajribali fermerimiz bu borada 90 — 100 sentnerlik marrani zabt etganini alohida ta'kidlash lozim. Resurslarni tejaydigan intensiv texnologiyalar asosida 50 ming gektar maydonda sabzavot yetishtirilib, hosildorlik an'anaviy usulga nisbatan 200 — 250 sentnerga oshgani, sof daromad gektaridan 6 — 8 ming dollarni tashkil etgani ham muhim yutuqlar qatoriga kiradi.

Shuningdek, o'tgan yili qishloq xo'jaligi subyektlariga 18 trln. so'm imtiyozli kredit va 176 mlrd. so'm subsidiya ajratilgani, umumiy qiymati 3,6 trln. so'mlik 11 600 dona yuqori unumli zamonaviy texnika va agregatlar yetkazib berilgani ham mavsumni samarali yakunlashda muhim omil bo'ldi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligiga innovatsiyalar hamda investitsiyalar keng jalb etilmoqdaki, ushbu yo'nalishda erishilgan natijalar amalda o'z ifodasini topayotir. Misol uchun, sohadagi tub islohotlar sabab paxta hamda g'alla hosildorligi oshdi. Qayta ishlash texnologiyalarini qo'llash, saqlash sharoitlarini yaxshilash va logistikani takomillashtirish orqali meva-sabzavot eksporti hajmi o'sdi. Suv tejoychi texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi suvdan foydalanish hajmini sezilarli darajada kamaytirdi. Energiya tejoychi uskunalardan foydalanilayotgani esa qishloq xo'jaligi korxonalarining energiya sarfini pasaytirdi.

sazovor. Shuningdek, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun 75 ming gektar yer maydonlari 180 ming nafardan ortiq ijtimoiy muhojir aholi hamda yoshlarga bo'lib berilgani va 200 mingdan ziyod ish o'rni yaratilgani qishloqda bandlekni ta'minlash, real daromadlarni oshirish, kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynamoqda. Tomorqachilikda daromadni oshirish maqsadida 5145 ta mahalla "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida ixtisoslashtirildi. Chorva naslini yaxshilash va mahsulot hajmini ko'paytirish uchun aholiga 40 ming bosh qoramol, 82 mingta qo'y va echki yetkazib berildi, chetdan 260 ming bosh zotdor mollar olib kelindi.

Joriy yilda ham bu boradagi ishlar izchil davom ettirilayapti. Mazkur yil bo'yicha qabul qilingan Davlat dasturi sohani barqaror rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida "yashil" texnologiyalarni qo'llash, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish bo'yicha yangi imkoniyatlar ochdi. Ayniqsa, agrar sohani ilm-fan asosida rivojlantirishni tizimli yo'lga qo'yish, uning barcha tarmog'idagi innovatsion faoliyatni integratsiyalash maqsadida 2025-yili O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasini tashkil etish belgilangan.

O'tgan yillardagi ijobiy tajriba davom ettirilib, yana 100 ming gektar yer dehqon xo'jaliklarini

qilish, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, qishloq ahli uchun yangi ish o'rinlari yaratish borasidagi ishlar ham izchil davom ettiriladi. Shubhasiz, bu sa'y-harakatlar ortida ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramlikni kamaytirish, qishloq aholisining daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va qishloq infratuzilmasini yaxshilash maqsadlari yotibdi.

Bundan tashqari, agrar soha taraqqiyotini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, fermerlarga subsidiyalarni ajratish, imtiyozli kreditlar berish, soliq imtiyozlarini qo'llash va qishloq xo'jaligi texnikasini xarid qilishda yordam ko'rsatish orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasi doimiy e'tibordir.

Albatta, qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar mamlakatimiz aholisini nafaqat sifatlil mahsulotlar bilan, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Tizim fidoyilari esa ushbu yo'lga ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ko'lamini kengaytirish, soha vakillarini, fermerlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda agroklasterni rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu esa pirovardida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, sifatini yaxshilash, narxlarni barqarorlashtirish va aholi daromadlarini oshirishga hissa qo'shadi.

Futzal bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi "Osiyo kubogi — 2026" saralash bosqichida "F" guruhidan joy egalladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir S. Mamirov. Musahhib Sh. Mashrabboyev. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.20 Topshirildi — 02.35 1 2 3 4 5 6